XALQ DEPUTATLARI ZOMIN TUMANI KENGASHI QARORI

2023 - yil 8 - avgust VI-50-88-3-48-K/23 Zomin tumani hokimligi

Tumani hokimligi balansidagi xizmat avtomashinalariga yoqilg‘i moylash maetriallari olish va binoni saqlab turish kommunal xizmatlari uchun asosiy smetada mablag‘ yetishmasligi tufayli ushbu xarajatlarni maxalliy byudjet qo‘shimcha mablag‘lari xisobidan qoplash to‘g‘risida

Tuman xokimligining 2023-yilda tasdiqlangan xarajatlar smetasida birinchi navbatda ish xaqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun mablag‘ rejalashtirilganligi xamda 4-gurux (kommunal to‘lov va boshqa) xarajatlariga mablag‘lar ajratilmaganligi sababli tuman xokimligi boshqaruv apparati ish faoliyatini normal olib borish zarur bo‘ladigan kommunal xizmatlari va boshqa xarajatlar (telefon, internet aloqasi, pochta aloqasi, elektr energiya, yoqilg‘i, suv va boshqalar) uchun maxalliy byudjetdan qo‘shimcha mablag‘ ajratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Maxalliy davlat xokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan, Xalq deputatlari tuman kengashi

QAROR QILADI

1. Tuman hokimligining 2023-yil tasdiqlangan xarajatlar smetasida birinchi navbatda ish xaqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun mablag‘ rejalashtirilganligi xamda 4-gurux (kommunal to‘lov va boshqa) xarajatlariga mablag‘lar ajratilmaganligi sababli tuman hokimligi boshqaruv apparati ish faoliyatini normal olib borish uchun zarur bo‘ladigan kommunal xizmatlari va boshqa xarajatlar (telefon, internet aloqasi,pochta xizmati, elektr energiya, yoqilg‘i, va boshqalar) uchun mahalliy byudjetdan qo‘shimcha mablag‘ ajratish to‘g‘risida tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Omonqulovning ma’ruzasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi mudiri (D.Mamatqulov)ga:

tuman hokimligiga 4-gurux xarajatlari kommunal xizmat va boshqa xizmatlar uchun asosiy smetada mablag‘ yo‘qligi sababli 1-ilovada ko‘rsatilgan xarajatlar turiga

tuman byudjetining 2023-yil 2-chorak daromadlar rejasining ortirib bajarilgan mablag‘lari hisobidan 70.000,0 ming so‘m ajratish hamda tuman hokimligi yillik xarajatlar smetasiga kiritish topshirilsin.

3.Tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (O.G‘afforov)ga: 4-gurux-kommunal to‘lovlar (telefon, internet aloqasi, pochta xizmati, yoqilg‘i va boshqa) uchun to‘lovlarni o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazish va g‘azna ijrosini amalga oshirish topshirilsin.

4. Tuman hokimligi bosh xisobchisi v.v.b. A.Ro‘zibekovga: yuqorida ajratilgan mablag‘lardan xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalarga asosan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining maxalliy budjet, iqtisodiy isloxotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi S.Ergashev hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Omonqulov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Abdug'aniyev**

Xalq deputatlari Zomin tuman
Kengashining
2023-yil 8-avgustdagi
VI-50-88-3-48-K/23-son qaroriga
1-ilova

Tuman hokimligi ma’muriy binosini saqlab turish uchun kommunal xizmatlari va boshqa xarajatlar (telefon, internet aloqasi,pochta xizmati, elektr energiya, yoqilg‘i va boshqalar)

Maqsadi	**Summasi (ming so‘m)**
Tuman hokimligi binosi elektr energiya xarajati 2 oyga	18 500,0
Tuman hokimligi internet aloqasi xizmati 3 oyga*3000 m.s.	9 000,0
Tuman hokimligi telefon xizmati uchun 3 oyga*2500 m.s.	7 500,0
Tuman hokimligi xizmat mashinasiga benzin 2 oyga	25 000,0
Tuman hokimligiga pochta xizmati uchun	10 000,0
JAMI	**70 000,0**